

“QUTADG‘U BILIG”DA AXLOQIY IRODANING SHAKLLANISHI VA EKZISTENSIAL QARORLAR



<https://doi.org/10.5281/zenodo.15673962>

Djurayev G'olib Abdurasulovich

“ALFRAGANUS UNIVERSITY” nodavlat

oliy ta'lim tashkiloti o'qituvchisi

TDSHU, mustaqil tadqiqotchi

ORCID 0009-0008-3136-4372

jorayev2144@gmail.com

(+998(90)931-21-44)

ANNOTATSIYA

Maqolada Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asaridagi axloqiy iroda konsepsiyasi ekzistensializm falsafasining erkinlik, tanlov va mas’uliyat tushunchalari bilan qiyosiy tahlil etiladi. Asardagi ramziy personajlar orqali insonning axloqiy qaror qabul qilishdagi ichki murakkabliklari ochib beriladi. Tadqiqotda Sartr va Kamyuning fikrlariga tayangan holda iroda, ma’naviy yetuklik va mavjudlik o’rtasidagi dialektik bog’liqlik yoritiladi. “Qutadg‘u bilig”dagi axloqiy iroda modeli ijtimoiy barqarorlik va ma’naviy mas’uliyatni integratsiyalovchi falsafiy yondashuv sifatida talqin qilinadi.

Kalit so‘zlar: Yusuf Xos Hojib, Qutadg‘u bilig, axloqiy iroda, ekzistensializm, tanlov, erkinlik, Sartr, Kamyu, ma’naviy mas’uliyat.

ABSTRACT

This article presents a comparative analysis of the concept of moral will in Yusuf Khass Hajib's Qutadg‘u Bilig with the notions of freedom, choice, and responsibility in existentialist philosophy. Through the symbolic characters in the text, the inner complexities of moral decision-making are revealed. Drawing on the ideas of Sartre and Camus, the dialectical connection between will, moral maturity, and existence is explored. The moral will model in Qutadg‘u Bilig is interpreted as a philosophical approach integrating social stability and moral responsibility.

Keywords: Yusuf Khass Hajib, Qutadg‘u Bilig, moral will, existentialism, choice, freedom, Sartre, Camus, moral responsibility.

АННОТАЦИЯ

В данной статье представлен сравнительный анализ концепции моральной воли в произведении Юсуфа Хос Ходжиба «Кутадгу Билиг» с понятием свободы, выбора и ответственности в экзистенциалистской философии. Через символические персонажи произведения раскрываются внутренние сложности морального принятия решений. Опираясь на идеи Сартра и Камю, исследуется диалектическая связь между волей, моральной зрелостью и существованием. Модель моральной воли в «Кутадгу Билиг»

интерпретируется как философский подход, интегрирующий социальную стабильность и моральную ответственность.

Ключевые слова: Юсуф Хос Ходжиб, «Кутадгу Билиг», моральная воля, экзистенциализм, выбор, свобода, Сартр, Камю, моральная ответственность.

KIRISH. Insonning axloqiy tanlovi, iroda erkinligi va mas'uliyat kabi masalalar qadim zamonlardan buyon falsafiy tafakkurning markazida bo'lib kelgan. Sharq va G'arb falsafasida bu muammolarga turlicha yondashuvlar mavjud bo'lsa-da, ularning barchasi inson mohiyatini, uning hayotdagi o'rnini va erkinlikdagi imkoniyatlarini aniqlashga qaratilgan. Ayniqsa, XX asr G'arb falsafasida shakllangan ekzistensializm oqimi bu muammolarni nihoyatda keskin va radikal tarzda qo'ygan bo'lib, insonni "mavjudlikka tashlab qo'yilgan", mutlaq erkin va shu bilan birga o'z tanlovi uchun mutlaq mas'uliyatli mavjudot sifatida talqin etadi. Jan Pol Sartr, Alber Kamyu kabi mutafakkirlar insonning erki, tanlov qilish qobiliyati va axloqiy mas'uliyatini uning mavjudlik asosiga aylantirganlar.

Sharq falsafasi, xususan, turkiy tafakkur an'analari ham inson irodasi va axloqiy yetuklik muammosi markaziy mavzulardan biri hisoblanadi. Bu jihatdan Yusuf Xos Hojibning XI asrda yozilgan "Qutadg'u bilig" asari alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu asar o'z zamonasining siyosiy-ijtimoiy, axloqiy va ma'naviy muammolarini chuqur falsafiy nuqtai nazardan tahlil etgan holda, insonning ichki olami, axloqiy komillikka intilishi, iroda orqali o'z yo'lini topishi kabi muammolarga chuqur yondashadi. Yusuf Xos Hojib o'ziga xos dunyoqarash doirasida, ammo umuminsoniy qadriyatlar asosida insonni ongli, tanlov qiluvchi va ma'naviy yetuk mavjudot sifatida tasvirlaydi.

Qutadg'u biligning strukturasida aks etgan to'rt asosiy timsol – Kuntug'di (Adolat), Oyto'ldi (Saodat), O'gdulmish (Aql) va O'zg'urmish (Qanoat) – bu asardagi axloqiy-falsafiy tizimning tayanch ustunlari hisoblanadi. Aynan shu personajlar orqali Yusuf Xos Hojib insoniy qadriyatlar, mas'uliyat va axloqiy iroda haqida falsafiy mushohada yuritadi. Har bir timsolning o'z hayotiy pozitsiyasi, dunyoqarashi va tanlov asosida faoliyat yuritishi, asar ichida iroda va axloqiy muvozanat muammosini ochib beradi. Bu jihatlar, zamonaviy ekzistensializm da ilgari surilgan "tanlov orqali o'zlikni qurish", "erkinlikda axloqiy javobgarlik" va "mavjudlikka ma'no berish" kabi kontseptual yechimlar bilan semantik uyg'unlikda tahlil qilinishi mumkin.

Sharq falsafasida insonning erki va axloqiy tanlovi ilohiy iroda va jamiyat qadriyatlari bilan muvofiqlashtirilgan bo'lsa-da, u mutlaq determinizm doirasida emas, balki irodali shaxs sifatidagi imkoniyatlari bilan baholanadi. Yusuf Xos Hojib bu jarayonni davlat boshqaruvi, axloqiy me'yorlar va shaxsiy kamolot nuqtai nazaridan yoritadi. Shu bois, "Qutadg'u bilig"dagi axloqiy iroda kontseptsiyasi ekzistensial tanlov tushunchasi bilan qiyosiy tahlil etilishi zamonaviy falsafiy va madaniy dialog uchun dolzarb masaladir.

Ushbu maqola aynan shu nuqtai nazardan harakat qilib, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asaridagi axloqiy iroda tushunchasini ekzistensialist falsafa – xususan Sartr va Kamyuning qarashlari bilan qiyoslash orqali inson tanlovi, ma’suliyat va erkinlik muammolarini chuqur tahlil qilishga qaratiladi. Maqola doirasida, axloqiy iroda qanday shakllanishi, qanday mezonlar asosida yo‘naltirilishi, va bu jarayonda inson qanday mavjudlik sifatida namoyon bo‘lishi masalalari muhokama qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI.

Tadqiqotda falsafiy-tahliliy, qiyosiy analiz, kontent-analiz kabi usullardan foydalanildi. Qutadg‘u bilig matni zamonaviy axloqiy va ekzistensial tushunchalar bilan falsafiy-tahliliy izohlandi. Yusuf Xos Hojibning fikrlari Jan Pol Sartr va Alber Kamyu qarashlari bilan qiyosiy analiz usulida solishtirildi. Asardagi iroda, tanlov, axloq, mas’uliyatga oid iqtiboslar ajratib olinib, tahlil qilindi.

MUHOKAMA.

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” (Saodatga yo‘llovchi bilim) asari nafaqat didaktik, pand-nasihat uslubidagi mumtoz asar, balki o‘rta asrlar turkiy xalqlarining ilg‘or falsafiy g‘oyalarini o‘zida mujassam etgan, o‘z davrining o‘y-fikrlari, orzu-umidlari, g‘am-tashvishlarini ifoda etish bilan birga hayotning mazmuni, mohiyati, insoniy mavjudlikning axloqiy tanlovlar qurshovidagi savol-javoblari, iroda-erki va jamiyat oldidagi hamda vijdoni oldidagi mas’uliyati masalalarini ham tasvirlay olgan manbadir. Asarda garchi hukmdorning qanday fazilatlariga ega bo‘lishi hamda qanday illatlardan qochishi kerakligi axloqiy tanlov sifatida ta’kidlanib, pand-nasihat tarzida insonni tarbiyalash maqsad qilingan bo‘lsa-da, ba’zi suhbat va personajlarning savol-javoblarida asar muallifining ekzistensial muammolardagi yechim izlaganligini ilg‘ash qiyin emas.

Inson hayotining mazmuni nima? - degan savolga;

“Tirikchilik chirog‘i ham ko‘z ochib-yumguncha o‘chadi. Hayot –tushdek gap. U yashindek tez ko‘chadi.”

Tirik oxir o‘lar qora yer quchub,

Nom ezgu esa-chi, ketarmi o‘chib?!

Ikki xil nom qolar tilda begumon,

Biri yaxshilig-u birisi – yomon. [1;19-20]

Inson hayotining mazmuni va mohiyati – o‘zidan nom qoldirishdir. Yusuf Xos Hojib axloqiy qarashlarining markaziy nuqtasi ham inson hayotining mohiyatini “o‘zidan yaxshi nom qoldirish” g‘oyasiga tayanishini, ammo “nom qoldirish”ni ikki qarama-qarshi turi borligini ham ko‘rsatib berganligini ko‘rishimiz mumkin. Yaxshi va yomon nom qoldirish mumkin, tanlov erkinligi insonda mavjud, ammo yaxshi nom qoldirish inson hayotiga ma’no beradi;

“Dono maqto‘v olar, nodonchi, so‘kish,

O‘zing o‘yla, senga ma’qul, qaysi ish?!”

Yusuf Xos Hojib dunyoqarashida ekzistensial qaror – inson hayotining ma'nosi "o'zidan yaxshi nom qoldirish"dir. Yaxshi nom qoldirish har qachon manfaatlidir.

Jan Pol Sartrning fikricha, inson eng avvalo subyektiv kechinmalar orqali o'z-o'zini loyihalovchi mavjudotdir [2;183]. Shunday ekan yaxshi nom qoldirishni hayotning ma'nosi deb bilish va shu maqsad sari butun hayotining mazmunini loyihalash Yusuf Xos Hojib axloqiy tanlovidir. Ammo bu tanlov orqali muqobil tanlovlar ham tasdiqlanyapti va inkor ham etilyapti. Yomon nom qoldirish nadomatli oqibatlariga olib boryapti. Yana bir jihati borki, na yaxshi va na yomon nom qoldirishni maqsad qilmaganlar ham bor-ki, ular ham subyektiv kechinmalari asosida o'zlarini loyihalovchi mavjudotdir.

"Qutadg'u bilig"ning boshqa bir qahramoni uchun hayotning ma'nosi toat-ibodatdan iborat. O'zg'urmish uchun hayotning ma'nosi subyektiv kechinmalari natijasida paydo bo'lgan ekzistensial qarorlaridan iborat ekanligini uning so'zlaridan bilsak bo'ladi. Davlat xizmati uchun, jamiyat farovonligi uchun O'g'dulmish tomonidan eligning taklifini rad etishda keltirgan fikrlari orqali O'zg'urmishning tarkidunyochilikni maqsad qilganini o'qiymiz. Odamlardan uzoqlashib, tog'-u toshlarda yolg'izlikni istagan qalb egasining hayot mazmunini qanday anglashi va o'zini himoya qilishi tasvirlanadi.

Yolg'izlik — odamzod nasliga balo,

Yolg'izlikda dard ham ozaymas aslo. [1;102]

Ekzistensialistlar yolg'izlikni erkinlikni namoyon bo'lishi sifatida ifodalasalar-da, ba'zan ekzistensial krizisning yuzaga kelishida yolg'izlik og'ir asoratli bo'lishi ham mumkinligini inkor etishmaydi. Ammo O'zg'urmishning yolg'izligi aslida yolg'izlik emas, balki yaratguvchi bilan qolishligini anglatadi.

"Foyda-zarar ko'rishga yoxud yaxshi-yomon bo'lishga insonning o'zi sabab." – deb bilgan O'zg'urmish qarindoshi O'g'dulmishni haydab, ibodatdan qoldirganlikda ayblaydi.

Jan Pol Sartr falsafiy qarashlarida ekzistensial qarorlar ba'zan o'z-o'zini aldash yoki yolg'on e'tiqodni keltirib chiqaradi. Bundan holatni Alber Kamyu falsafiy o'z-o'zini o'ldirish deb baholaydi. Qutadg'u bilig qahramoni O'zg'urmishda bu holatni kuzatish mumkin. O'g'dulmish esa uning qarashlarini tanqid qiladi;

Kishilarga to naf, berolsin kishi,

Oti tirik bo'lsin, maqtovli — ishi.

Tiriklik nishoni, nedir belgisi,

Kishiga bo'lmasa uning ezgusi?! [1;103]

O'zg'urmish va O'g'dulmish o'rtasidagi bahs-munozara orqali Yusuf Xos Hojib hayotga bo'lgan ikki xil dunyoqarashni tasvirlab beradi.

Tog'-u toshlarga joylashib olib toat-ibodatga umrini baxshida qilgan O'zg'urmish yolg'izlikdan topgan erkinligini endi Eligga xizmat qilish bilan yo'qotishini xohlamasligini ham aytadi. Erkinlik Sartr falsafasining markaziy kategoriyalaridan biri bo'lib, "inson erkinlikka mahkum" ekanligini ta'kidlaydi.

“Yana bir andisha ham bor: sen ham, men ham insonmiz. Ikkalamiz ham inson bolganimizdan keyin nima uchun men senga topinib-sig‘inishim, senga xizmat qilishim kerak?!” [1;113] – deb bergan savolida O‘zg‘urmishning erkinlikka chanqoqligini va Elig xizmatiga kirishib, o‘z erkinligidan mahrum bo‘lishi mumkinligi g‘amini o‘ylaydi.

XULOSA.

Shu tarzda Yusuf Hos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida qahramonlarning suhbatlari, axloqiy qarashlari va ekzistensial qarorlari bir necha falsafiy masalalarni ochib beradi. Inson hayotining ma‘nosi, erkinlik va jamiyatga naf beruvchi, mas‘uliyatni anglangan hayotiy yo‘l - yaxshi nom qoldirish, insonlarga ezguliklarni in‘om etish masalalari pand-nasihat shaklida bayon etiladi. Zamonaviy falsafiy tafakkur shakli bo‘lgan ekzistensializm nuqtai nazari bilan talqin etganda asar qahramonlarining hayot mazmunini izlashdagi yondashuvlari orqali tushunish mumkin-ki, Yusuf Hos Xojibni ham ekzistensial falsafa ko‘targan masalalarda o‘z tanlovlari bor va o‘zgacha tanlovlardan farqlanishini asoslashga bo‘lgan urinishlar ham mavjud.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. T.; 2007. 19-20, 102,103,113-betlar.
2. Jan Pol Sartr. Ekzistensializm to‘g‘risida. (Abdulla Sher tarjimasini). Jahon adabiyoti. 5-son, 1997-yil. 183-bet
3. Muhamedov A.A. Yusuf Xos Hojib ilmiy merosining ijtimoiy-falsafiy tahlili. Monografiya. T; “Oltin qalam nashriyoti”. 2023, 134 bet.
4. Djurayev, G‘.A. (2024). JAN POL SARTR EKZISTENSIAL FALSAFASI GUMANIZM SIFATIDA. International scientific journal of Biruni, 3 (2), 81-94.
5. Abdurasulovich, D. G. O. (2023). Ekzistensializm da beshta asosiy mavzu. Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi, 2(1), 973-977.
6. Uralov, D., & Shodmonova, L. (2024). IBN SINONING INSON VA MA'NAVIY KAMOLAT MASALASIGA MUNOSABATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(26), 334-338.
7. Uralov, D. (2024). JAMIYAT XAVFSIZLIGI VA BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA SOG 'LOM MAFKURALARNING ROLI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR. *International scientific journal of Biruni*, 3(1), 222-228.
8. Uralov, D. (2021). TALABA-YOSHLAR ONGIDA MA'NAVIY BO'SHLIQNI TO 'LDIRISHDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(9), 962-966.
9. Abdurasulovich, D. G. O. (2023). The Question of Moral Selection in French Ecclesialism. *European Journal of Pedagogical Initiatives and Educational Practices*, 1(8), 42-44.

O'ZBEKISTONNING MUSTAQILLIK YILLARIDA NOMODDIY MADANIY MEROSNI SAQLASHGA QARATILGAN MADANIY SIYOSATI: STRATEGIK DASTURLAR VA NATIJALAR



<https://doi.org/10.5281/zenodo.15673999>

Madiyor TURDIYEV,

Alfraganus university, Ijtimoiy fanlar fakulteti,
Xalqaro munosabatlar va tarix kafedrası katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasining mustaqillik yillarida nomoddiy madaniy merosni saqlashga qaratilgan madaniy siyosati, uning asosiy yo'nalishlari, strategik dasturlari va natijalari keng yoritilgan. Shuningdek, davlat tomonidan olib borilgan ishlar natijasida madaniy merosning xalqaro miqyosda e'tirofi, milliy o'zlikni anglashning mustahkamlanishi va madaniy turizm rivojidagi yutuqlarga alohida e'tibor qaratilgan. Ushbu tadbirlar nomoddiy madaniy merosni kelajak avlodlarga yetkazish va milliy qadriyatlarni targ'ib qilishda muhim rol o'ynaydi.

Kalit so'zlar: madaniy siyosat, Ma'naviy meros, madaniy –ma'naviy boyliklar, folklor-etnografik guruhlar, Nomoddiy madaniy meros, milliy an'analar.

Annotation: This article highlights the cultural policy of the Republic of Uzbekistan aimed at preserving intangible cultural heritage during the years of independence, its main directions, strategic programs, and results. Special attention is given to the international recognition of cultural heritage, the strengthening of national identity, and the achievements in the development of cultural tourism as a result of state initiatives. These measures play a crucial role in passing down intangible cultural heritage to future generations and promoting national values.

Keywords: cultural policy, spiritual heritage, cultural and spiritual wealth, folklore-ethnographic groups, intangible cultural heritage, national traditions.

KIRISH

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin mamlakatda milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotirani tiklash, milliy madaniyat va qadriyatlarni asrab-avaylashga katta e'tibor qaratildi. Bu jarayonda nomoddiy madaniy merosni saqlash va uni avlodlarga yetkazish davlat madaniy siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib kelmoqda. Tarixdan ma'lumki mamlakatimiz hudulari bir necha bor tashqi bosqinlarga duchor bo'lgan. Qaramlik va zulm ham xalqimizning irodasini buka olmadi, xalqimiz o'zligini yo'qotmadi. O'zining boy tarixi, urf -odatları, qadriyatlarini saqlab qola oldi. Chor Rossiyasi va sovet mustamlakasi davri xalqimiz ma'naviy merosiga uning tarixi nisbatan yuritilgan siyosat, madaniy va ma'naviy boyliklarimizning talon-taroj qilinishi ham madaniyatimizni, urf-odatlarimizni yo'qota olmadi. Madaniyatimizga nisbatan

yuritilgan bunday siyosat va yondashuv ko'plab tarixiy yodgorliklarimizni qarovsiz qolishiga, ularning buzilishiga, qo'lyozma kitoblarimizning nashr etilmay yoki tarjima qilinmay qolishiga sabab bo'ldi. Xalqimizni boy madaniyati, tarixidan mahrum qilishga harakat qilindi. Mustaqillik tufayli xalqimizning boy tarixi, madaniyati va ma'naviyati o'ziga qaytdi. Ma'naviy meros tiklanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Bugungi kunda ma'naviy merosimizni, qadriyatlarimizni tiklash, xalqimiz, jumladan, yoshlarimiz ma'naviyatini boyitish, o'zligini anglash, xususan kelajagimiz bo'lgan, zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, ongli mutaxassis kadrlarni tayyorlash ularning ma'naviyatini yuksaltirishga yerishish g'oyat muhimdir. Respublika Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlab o'tganidek, ma'naviyatning mohiyati shunchalik kengki, uni o'lchab ham, poyoniga etkazib ham bo'lmaydi. U inson uchun butun bir olamdur[1]. Ma'naviy meros qadim otabobodarimizdan bizgacha yetib kelgan ma'naviy boyliklar – siyosiy, falsafiy, huquqiy diniy qarashlar, qadriyatlar, urf-odatlar, odob-axloq me'yorlari, ilm-fan yutuqlari, tarixiy, badiiy va san'at asarlari majmuidir. Madaniy meros asrlar davomida otabobolarimiz tomondan yaratilgan, sayqallarga madaniy –ma'naviy boyliklarimizdir. U jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida jamiyat ehtiyojlari tufayli yuzaga keladi, o'z davri hayotini aks ettiradi va keyinga avlodlar uchun ma'naviy meros bo'lib qoladi. O'zbek xalqining boy ma'naviy qadriyatlarini qaytadan tiklash, ularni xalqimizga qaytarish mustaqillik davri tariximizning ajralmas qismidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev tomonidan 2017-yil 28-iyulda qabul qilingan (PQ-3160) «Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida»gi qarori bilan Respublika Ma'naviyat targ'ibot markazi hamda Milliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi birlashtirilib, Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi qayta tashkil etildi, uning dolzarb vazifalari belgilandi[2]. Bu esa jamiyat hayotining ma'naviy-ma'rifiy asoslarini mustahkamlash, Vatanimiz taqdiri va kelajagi uchun dahldorlik va mas'uliyat hissini oshirish, yot g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirishga yo'naltirilgan targ'ibot tizimini yanada rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ajdodlarimizning bizgacha etib kelgan boy madaniy meroslarini o'rganish ham katta o'rin egallaydi. Shu sababli O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qadriyatlar, urf-odatlar, buyuk otabobolarimizning bizga qoldirgan meroslarini o'rganish va targ'ib etish uchun keng yo'llar ochildi. Bu boradagi tadbirlar mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq amalga oshirila boshlandi. Xususan, ma'naviy-ma'rifiy ishlarining rivojlanishi uchun davlat tomonidan katta mablag'lar ajratildi. O'zbekistondagi barcha davlat teatrlari, madaniyat uylari, san'at oliy o'quv yurtlari, folklor-etnografik guruhlar madaniyat o'choqlariga aylanib qoldi. Teatr sahnalarida yangi zamonaviy spektakllar qo'yila boshladi.

Mustaqillik bizning milliy-madaniy qadriyatlarimizning naqadar boy va teran tafakkur uslubini shakllantirishga imkoniyat ochib berdi. Oqibatda milliy

qadriyatlarimiz jamiyatimiz taraqqiyotini tezlashtirish, yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda hamda ularni milliy iftixor ruhida tarbiyalashda qudratli tarbiyaviy negiz bo'lib xizmat qilmoqda. O'z o'rnida, mustaqillik ne'mati bizga nomoddiy madaniy merosimizni qayta tiklash va yanada rivojlantirishimizga cheksiz imkoniyatlar eshiklarini ochdi. Nomoddiy madaniy meros – bu xalqning boy ma'naviy xazinasini bo'lib, u madaniy an'analarda, urf-odatlarida, marosimlarda, milliy hunarmandchilikda, og'zaki xalq ijodida va boshqa ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Ushbu merosni saqlab qolish jamiyatning ma'naviy uyg'unligi, madaniy xilma-xillikni ta'minlash va xalqning tarixiy xotirasini saqlash uchun muhim omildir. Shu sababli, O'zbekistonda mustaqillik yillarida nomoddiy madaniy merosni himoya qilishga qaratilgan ko'plab tashabbuslar amalga oshirildi. Quyida davlatimiz aynan mustaqillikka erishilgandan so'ng madaniy siyosatining asosiy yo'nalishlari va olib borilgan islohatlarni tahlil qilamiz. O'zbekiston Respublikasida madaniy merosni himoya qilishga qaratilgan bir qancha huquqiy asoslar yaratildi. Masalan:

- 2001-yilda qabul qilingan "Madaniyat to'g'risida"gi qonun;
- 2009-yilda "Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi qonun.

- O'zbekiston, shuningdek, 2001-yilda YUNESKOning Nomoddiy madaniy merosni himoya qilish to'g'risidagi konvensiyasiga qo'shilgan. Bu esa xalqaro miqyosda ham o'zbek madaniyatini targ'ib qilish va himoya qilishda muhim o'rin tutadi.

O'zbekistonda davlat tomonidan turli davr va hududlarga oid madaniy meros obyektlarini asrash bo'yicha maxsus dasturlar amalga oshirilmoqda. Ushbu dasturlar doirasida tarixiy yodgorliklar, milliy an'analar va hunarmandchilikning saqlanishi ta'minlanmoqda[3].

- YUNESKO ro'yxatidagi ob'ektlar: O'zbekistonning Boysun madaniy hududi, Shashmaqom, Navro'z kabi nomoddiy madaniy meros unsurlari YUNESKOning nomoddiy madaniy meros ro'yxatiga kiritilgan. Bu merosni xalqaro miqyosda e'tirof etilishiga xizmat qiladi.

- Madaniy meros markazlari: Madaniyat va san'at sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borish uchun maxsus markazlar ochilgan. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Madaniy meros agentligi bu borada muhim rol o'ynaydi.

Mustaqillik yillarida milliy hunarmandchilikni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Xususan, "Hunarmand" uyushmasi orqali hunarmandlar faoliyatiga ko'maklashish, ularning xalqaro ko'rgazmalarda ishtirokini ta'minlash choralari ko'rilmogda. Har yili o'tkaziladigan xalqaro festivallar (masalan, "Sharq taronalari", Hunarmandchilik festivali) orqali o'zbek milliy san'ati va madaniyati dunyo hamjamiyatiga keng tanitilmoqda. Madaniy merosni asrash va targ'ib qilishda ta'lim tizimi ham muhim rol o'ynamoqda[4]. Milliy universitetlar va oliy o'quv yurtlarida madaniyatshunoslik, etnografiya va xalq san'ati bo'yicha maxsus kurslar

tashkil etilgan. Shu bilan birga, bolalar musiqa va san'at maktablarida milliy cholg'u asboblari chalinib va og'zaki ijodni o'rgatish tizimi yo'lga qo'yilgan.

NATIJA VA MUHOKAMA

Yuqorida ko'rilgan chora tadbirlar, olib borilgan islohatlar natijasida O'zbekistonning nomoddiy madaniy merosi dunyo hamjamiyatida keng e'tirof etildi. Shashmaqom, Katta Ashula va boshqa xalq an'analari xalqaro ro'yxatlarga kiritildi, bu esa mamlakatning xalqaro nufuzini oshirdi. Mustaqillik yillarida xalqning milliy o'zligini anglash darajasi oshdi, bu esa madaniyatning rivojlanishi va asrlar davomida shakllangan qadriyatlarning tiklanishida muhim omil bo'ldi. O'zbekistonda nomoddiy madaniy merosning rivoji madaniy turizmning jadal rivojlanishiga olib keldi. Turli festivallar, ko'rgazmalar va xalqaro tadbirlar orqali mamlakatga keluvchi sayyohlar soni yildan-yilga ortib bormoqda[5].

Bugungi kunda mustaqillik yillarida O'zbekiston o'zining boy tarixiga tayanib, porloq istiqbolini qurayotgan davlat, hamjihat xalq, eng tez rivojlanayotgan mamlakat sifatida dunyoga tanildi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida boshlangan, hayotga tatbiq etilayotgan izchil islohotlar, amaliy sa'y-harakatlar yangi taraqqiyot marralarini egallash, zamon shiddatiga mos tarzda rivojlanish, xalqimiz manfaatlarini ta'minlashga qaratilgani bilan g'oyat ahamiyatlidir. Alohida ko'rsatib o'tishimiz darkorki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2017- yil 7- fevralda «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi farmoni qabul qilindi[6]. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi mamlakatimizda ham, chet el ijtimoiy-siyosiy doiralari tomonidan ham katta qiziqish va e'tibor bilan o'rganildi. Bu borada atoqli olimlar, nufuzli ekspert va kuzatuvchilar, turli darajadagi ko'zga ko'ringan rahbarlar o'z fikr-mulohazalarini bildirdilar.

Harakatlar strategiyasining har bir ustuvor yo'nalishi mamlakatimiz taraqqiyoti uchun g'oyat muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Inson huquqlarini ta'minlash, davlat organlarining hisobdorligi va ochiqqligini kuchaytirish, jamoatchilik nazoratini rivojlantirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirildi. Ushbu islohotlar natijasida nufuzli xalqaro reytinglarda mamlakatimiz o'rni yaxshilanishiga erishildi. Xususan, iqtisodiy erkinlik indeksida mamlakatimiz 44 pog'ona yuqorilab 108-o'rinni egalladi. Huquq ustuvorligi indeksi bo'yicha 14 pog'ona yuqorilab 85-o'ringa ko'tarildi. Shuni alohida aytish mumkinki, O'zbekiston bu borada eng yaxshi natija ko'rsatgan 3 ta davlatdan biriga aylandi. Global innovatsion indeksda O'zbekiston 7 pog'ona ko'tarilib, 132 ta davlat orasida 86-o'rinni egalladi va eng jadal yuqorilagan mamlakatlar top 10 taligiga kirdi. Bu borada amalga oshirilayotgan islohotlarning mantiqiy davomi sifatida Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va uni «Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi tasdiqlandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2022 yil 28 yanvar kuni «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida» gi farmon imzolandi va

ushbu farmon asosida 7 ta yo'nalish va yuz maqsadni o'z ichiga olgan Taraqqiyot strategiyasi qabul qilindi. Dastlab farmon loyihasi jamoatchilik muhokamasiga qo'yilib, 2022-2026 strategy.uz, jamoatchilik.uz, regulation.gov.uz portallariga jami 17 535 ta takliflar kelib tushdi.

Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

- Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish;
- Mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish;
- Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash;
- Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish;
- Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish;
- Illiy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish;
- Mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish.

Ushbu yo'nalishlar inson qadrini ulug'lash, mahalla institutini rivojlantirish, davlat organlarining xalq manfaatlariga xizmat qilishini ta'minlash kabilar ustuvor vazifa etib belgilangan[7]. Masalan, strategiyada belgilangan 1-maqsadga nazar salsak, unda mahalla instituti faoliyatining samaradorligini oshirish, uni jamoatchilik boshqaruvi va nazoratining tayanch bo'g'iniga aylantirish etib belgilanishi, mahalladan turib barcha davlat idoralariga murojaat qilish tizimini yaratish, davlat va ijtimoiy xizmatlarni bevosita mahallalarda ko'rsatish belgilanishi fuqarolarga bir qancha qulayliklarni yaratib beradi. Joriy yilning «Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili» deb nomlanishi va bu bo'yicha amalga oshirilishi belgilangan vazifalar Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasiga hamohang tarzda olib boriladi. Fuqarolar bilan bevosita ish olib boruvchi mahalla instituti muammolarning yuqori bo'g'inlarda to'planib qolishining oldini olgan holda har bir fuqaro bilan individual tarzda shug'ullanib, masalalarni hal etish yo'lidir.

Yana bir muhim islohotlardan biri 2026 yilgacha ehtiyojmand aholi ijtimoiy nafaqa va moddiy yordam bilan to'liq qamrab olinishidir. Shuningdek, 2023 yil 1 yanvardan pensiyani hisob-kitob qilishda ish haqining maksimal miqdori pensiyani hisoblash bazaviy miqdorining 10 baravaridan 12 baravarigacha oshirilishi mamlakatimiz tomonidan nafaqat yosh avlodga, balki keksalarga ham g'amxo'rlik qilinayotganini ifoda etadi. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida hech qanday soha yo'qki, e'tibor qaratilmagan. Aholiga axborot-kutubxona xizmatini ko'rsatishni yanada rivojlantirish, kitobxonlikni keng ommalashtirish hamda «Kitobsevar millat» umummilliy g'oyasini ro'yobga chiqarish deb nomlangan taraqqiyot strategiyasining 72-maqsadida aholiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni yanada rivojlantirish, kitobxonlikni keng ommalashtirish hamda sohada yagona boshqaruv tizimini joriy etish deb belgilangan. bugungi kunda yurtimizda

kitobxon yoshlarning soni ko'payib borishi quvonarli holdir. Minglab yoshlarni o'ziga jalb qilgan «Yosh kitobxon» tanlovi bugungi kunda kuchli raqobat muhiti asosida bo'lib o'tmoqda. Hali hech qaysi davlatda yoshlar o'rtasida o'tkaziladigan tanlovlarga sovrin sifatida avtomobil qo'yilmaganligini alohida aytishimiz mumkin. Kitob o'qigan boladan hech qachon yomonlik chiqmaydi, deganlaridek, kitobsevar xalqning kelajagi ham porloq bo'ladi. Xulosa qilib aytganda, Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi yaqin muddatga va uzoq istiqbolga mo'ljallangan harakatlar dasturi hisoblanadi. Taraqqiyot strategiyasi – rivojlangan davlatlarning tarixiy tajribasiga tayangan holda necha yuz yilda amalga oshirilgan ishlarni mamlakatimizda qisqa muddatda va yo'l qo'yilgan xatolarni takrorlamagan holda tatbiq qilish orqali uchinchi renessans poydevorini mustahkam qilib o'rnatish yo'lidagi dastlabki qadam, deb aytishimiz mumkin.

XULOSA

Inson kamoloti va tarbiyasida muhim ahamiyatga yega bo'lgan jamiyat va shaxs ma'naviyatini yuksaltiruvchi tafakkur rivojida beqiyos ahamiyat kasb yetadigan milliy qadriyat shakllarining inson faoliyatiga singib borishi jamiyatning yuksalib borishiga sabab bo'ladi. Demak, ma'naviyat jamiyatning yuksalishi yoki inqirozga yuz tutishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Ma'naviyat boyib borsa, jamiyat ravnaq topadi va aksincha, ma'naviyat qashshoqlashsa, jamiyat bora-bora tanazzulga yuz tutadi. Fan-texnika taraqqiyoti, zamonaviy kashfiyotlar insoniyatning qudratini oshiradi va yangi imkoniyatlarni vujudga keltiradi. Bunday holat insondan yanada yuksak ma'naviyat darajasiga ko'tarilishni talab yetadi. O'z navbatida, shaxsning ma'naviy yuksalishi uning ijtimoiy faolligini oshiradi va jamiyatning taraqqiyotini tezlashtiradi. Darhaqiqat, ma'naviyatni yuksaltirish shu kunning dolzarb vazifalaridan biri, kelajak poydevori bo'lmish yoshlar qalbi va ongiga boy ma'naviy merosni singdirish, mustaqillik g'oyalarini singdirish asosida o'zida xulq-odob madaniyatini mujassamlashtirgan barkamol avlodni shakllantirish kunning asosiy vazifasidir. Zero, Vatan kelajagi, xalqimiz oldida turgan ulkan maqsadlarga yerishish avvalo yoshlariga, ularning har tomonlama barkamol inson bo'lib voyaga yetishiga bog'liqdir. Istiqlof arafasida ma'naviyat sohasiga beqiyos ye'tibor qaratilib, yurtboshimiz sa'y-harakatlari bilan tilimizda, demakki, ongu tafakkurimiz – dunyoqarashimizda ma'naviy boyliklar, ma'naviy tarbiya, xalq ma'naviy boyligi, xalq ma'naviyati, ma'naviy burch kabi tushunchalar yangidan shakllandi. O'zbekiston mustaqillik yillarida nomoddiy madaniy merosni saqlash va rivojlantirish bo'yicha katta yutuqlarga erishdi. Davlat tomonidan ishlab chiqilgan strategik dasturlar va xalqaro hamkorlik bu borada muhim rol o'ynadi. Ushbu chora-tadbirlar nafaqat madaniy merosni asrab qolishga, balki milliy madaniyatni xalqaro miqyosda targ'ib qilishga ham xizmat qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A., Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. -T.: Ma'naviyat, 2008. -B. 134

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 28.07.2017 yildagi PQ-3160-son. <https://lex.uz/docs/-4071203>
3. Mustaqil O'zbekiston tarixi. Mas'ul muharrir A.Sabirov. - Toshkent: Akademiya, 2013.
4. Xoliqova R.E. O'zbekistonning eng yangi tarixi. –T., 2021.
5. Azizxo'jayev A.A. Mustaqillik: kurashlar, iztiroblar, quvonchlar. - Toshkent: 2001.
6. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. – Toshkent: Ma'naviyat, 2017
7. Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari